



**BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ,**

**BIRLASHSAK – VATANMIZ!**

**Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda**

# Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2024-yil 30-iyul № 7 (1541)  
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda



**BOSHQARUV RAISI – BOSH DIREKTOR MUROJAATI**

## HAMKORLIKDA MANFAATLAR TO'QNASHUVI VA KORRUPSIYAGA CHEK QO'YAMIZ!



### Hurmatli hamkasblar! Aziz metallurglar!

O'zbekiston metallurgiya kombinati rivojlangan ishlab chiqarish, transport va ijtimoiy infratuzilmaga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining yetakchi og'ir sanoat korxonalaridan biri. Kombinat erishilgan yutuqlar bilan kifoyalanib qolmay bugun jahon bozorida ham o'zining mustahkam o'rnini egallashga intilmoqda. Ammo bunga xalaqit beradigan muammo mavjud. Bu korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi muammosidir.

Ma'lumki, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi davlatga, jamiyatga katta zarar keltiradigan illatlardandir. Har

bir sohadagi manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biri. Ushbu illatlar har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquqi, erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Ular bor joyda sohalar rivojlanish o'rniga, orqaga ketadi. Shu bois ularga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Joriy yilning 5-iyunida "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Ushbu huquqiy hujjat endilikda demokratik jamiyat kushandasi bo'lgan korrupsiya illatlarining oldini olishga qaratilgani bilan ahamiyatli. Mazkur qonun manfaatlar to'qnashuvi-ga barham berish borasida muhim huquqiy asos bo'ldi. Qonun bilan manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi, davlat xizmatchilarining majburiyatlari hamda uni tartibga solish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilandi.

Qonun davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlariga, davlat muassasalariga, davlat unitar korxonalariga, davlat maqsadli jamg'armalariga, shuningdek, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlariga, ustav fondida davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

(Davomi 2-sahifada).

### BUGUNGI SONDA

#### TEMIRYO'LCHILAR

Sharafli kasb egalari 3

#### QURUVCHILAR

Mehnatlari  
tahsinga loyiq 4

#### YOSHLAR

Salohiyat va iqtidor 5

#### BUYUK AJDODIMIZ

Hadis ilmining sultoni 6

#### BOR GAP

Tekin pishloq  
qopqonda bo'ladi 8

#### SO'RAGAN EDINGIZ

Intizomiy jazoning  
muddati qancha? 9

#### FUTBOL

Superliga 11

#### TAFAKKUR

Xulosa qilishga  
shoshmang! 12



## MUSTAQILLIK BAYRAMI

BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ,  
BIRLASHSAK – VATANMIZ!

Bundan o'ttiz uch yil oldin o'ta og'ir va murakkab tarixiy vaziyatda qo'lga kiritilgan milliy istiqlolimiz bugungi kunda ko'p millatli butun xalqimizni Yangi O'zbekistonni barpo etishdek buyuk maqsad yo'lida birlashtirib, yangi yutuq va marralar sari ilhomlantirmoqda.

Aynan mustaqillik tufayli mamlakatimiz suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatga, xalqaro huquqning to'laqonli sub'ektiga aylandi. Dunyo bizni yangitdan tanidi va tan oldi. Yer yuzidagi turli davlatlar va xalqlar bilan do'stlik hamda hamkorlik aloqalarimiz tobora kengayib, yurtimizning xalqaro maydondagi mavqei va nufuzi ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik shonli sanasini chinakam umumxalq bayrami, ozodlik va saodat ayyomi sifatida ko'tarinki kayfiyatda kutib olish hamda mamlakatimizning bugungi taraqqiyot darajasi, yuksalish sur'atlarini munosib tarzda nishonlash maqsadida O'zbekiston mustaqilligining 33 yilligiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish choralari belgilandi.

Prezidentning "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, bayram tadbirlari "Bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanimiz!" shiori ostida

o'tkaziladi.


Tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda targ'ibot-tashviqot ishlari "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, shuningdek, "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" bo'yicha qabul qilingan davlat dasturi bilan uyg'un holda tayyorlanadi.

Mustaqillik bayrami Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida, shuningdek, barcha shahar hamda tumanlar, qishloq va ovullarda nishonlanadi.

Hududlarda Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy anjumanlar, uch avlod uchrashuvlari, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, milliy kino kunlari, sayillar, madaniyat va sport tadbirlari, gastronomik festivallari o'tkaziladi.

Joylarda inson qadri, uning huquq va manfaatlarini yetakchi o'rinda turadigan ijtimoiy davlat va xalqparvar jamiyat qurish yo'lida amalga oshirilayotgan tarixiy ishlar, mehnatkash va bag'rikeng xalqimizning bunyodkorlik salohiyati bilan erishilayotgan ulkan natijalarning mazmun-mohiyati haqida mahallalar, ta'lim muassasalari, mehnat jamoalarida ma'rifiy uchrashuv va suhbatlar o'tkaziladi.

Davlat mustaqilligi, uning xavfsizligi va hududiy yaxlitligining ishonchli kafolati bo'lgan O'zbekiston Qurolli Kuchlarining harbiy va



jangovar qudratini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar keng targ'ib etiladi.

Mustaqillik bayrami munosabati bilan keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e'zozlash, "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlariga kiritilgan hamda ko'makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ularga moddiy va ma'naviy yordam berish bilan bog'liq xayriya tadbirlari o'tkaziladi.

Milliy istiqlol, xalq ozodligi uchun kurashib, shu yo'lida jon fido etgan, mustabid tuzum davrida siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan otobobolar xotirasi yod etiladi.

Badiiy akademiya, Yozuvchilar uyushmasi, Jurnalistlar uyushmasi bilan birgalikda "Ona diyor – ranglar jilosida", "Vatan uchun yashaylik!", "Eng ulug', eng aziz" kabi an'anaviy ko'rik-tanlovlari o'tkaziladi.

HAMKORLIKDA MANFAATLAR TO'QNASHUVI  
VA KORRUPSIYAGA CHEK QO'YAMIZ!

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Qonunda davlat tashkiloti xodimlarining manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha majburiyatlari, manfaatlar to'qnashuviga oid talablarni buzganlikning huquqiy oqibatlarini, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yganda qabul qilingan va tuzilgan bitimlarni sud tartibida haqiqiy emas, deb topish asoslari, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygandlik uchun javobgarlik choralari belgilandi. Qonun manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishda davlat nazorati amalga oshirilishiga, davlat xizmatchilarining bevosita rahbarlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzaga kelganda tegishli choralari ko'rilishiga, davlat xizmatchilari tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldi olinishiga xizmat qiladi.

Kombinatimizda ham korrupsiya kabi manfaatlar to'qnashuvining oldini olish o'ta muhim. Bu muammo e'tirof etilib, nazoratga olinmasa, u mansabdor shaxslar, ular qabul qilaётgan qarorlar orqali taraqqiyotimizga rahna soladi. Manfaatlar to'qnashuvi korrupsiya e'ki xizmat vazifalarini suiiste'mol qilishni keltirib chiqaradi.

Ko'p ming kishilik metallurqlar jamoasi manfaatlar to'qnashuvi bor joyda korrupsiya holatlari ko'payishini yaxshi tushunadi. Zero, manfaatlar to'qnashuvi aslida ko'zga ko'rinmaydigan, biroq eng xavfli illat

## MUROJAAT

hisoblanadi. Bunga qarshi keskin kurashilsa, ya'ni manfaatlar to'qnashuviga chek qo'yilsa, bu kombinatimizning yanada tezroq rivojlanishiga xizmat qiladi.

**Qadrli ishchi-xodimlar, hamkasblar!**

Men sizlardan manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga befarq bo'lmasligingizni va unga qarshi kurashishda shaxsiy hissalaringizni qo'shishga harakat qilishingizni so'rayman.

Biz kombinatda manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasiz kurashamiz. Mansabdor shaxslar va xodimlarning shaxsan yoki vositachilik yo'li bilan taraqqiyot va farovonlikning to'sig'i bo'lgan bu illatlar bilan shug'ullanishi qat'iy ta'qiqlangan. Nafaqat bu illatlarga aralashgan, balki manfaatlar to'qnashuvi haqida xabardor bo'lib, unga e'tiborsizlik qilganlar ham qonun oldida javobgarlikka tortiladi. Ya'ni qonunda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar bermaganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Sizlardan o'z lavozim majburiyatlaringizni, xizmat vakolatlaringizni vijdonan bajarish va ularning bajarilishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatlaringiz bilan bog'liq har qanday harakatlardan o'zingizni tiyishga chaqiraman. Biz kombinatda lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligimiz shart.

Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish choralari ko'rish, ularni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish hamda ularga qarshi murosasiz muhitni shakllantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarimizni sizlar bilan hamkorlikda izchil davom ettiramiz.

Bu illatlar davlat va jamiyatimiz kabi kombinatimiz manfaatlariga zarar yetkazish jihatidan ijtimoiy xavfliligi ancha yuqori bo'lgan holatlarni keltirib chiqaradi. Kombinatlarda va xalqimiz manfaatlariga xizmat qilish barchamizning asosiy vazifamizdir. Shunday ekan mansabdor shaxslardan o'z vazifalarini adolatli va xolis bajarishlarini kutamiz.

**Rashid PIRMATOV,**

**"O'zmetkombinat" AJ Boshqaruvi raisi – bosh direktor.**



4-AVGUST – O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TEMIR YO'L TRANSPORTI XODIMLARI KUNI

# TEMIRYO'LCHILAR – SHARAFLI KASB EGALARI

Temir yo'llar har doim aniqlik va ravonlik garovi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Zero temiryo'lchilar o'z sohasining haqiqiy ustalari va har qanday vazifani o'z vaqtida sifatli bajarishga qodir bo'lgan kasb egalari.

Kombinatimiz Yagona logistika markazining Temir yo'l xizmati korxonamizda tunukun uzluksiz ravishda teplovozlarning xavfsiz harakatlanishni ta'minlab kelmoqda. Temiryo'lchilar mas'uliyatli ishlarida sidqidildan mehnat qilishib, zimmalaridagi vazifalarini sharafla bajarib kelayaptilar.

Temir yo'l xizmatining asosiy vazifasi yuk tashish hisoblanadi. Bu borada temiryo'lchilarimiz tomonidan yaxshi mehnat natijalariga erishib kelinmoqda.

2024-yil boshidan buyon temiryo'lchilar tomonidan 4,9 million tonnadan ortiq yuk tashilib, bu boradagi reja 108,5 foizga bajarildi. Yuklash-tushirish ishlari hajmi 7,4 ming tonnadan ortiqni tashkil etdi.

Harakatlanuvchi tarkib va xomashyodan oqilona foydalanish evaziga yil boshidan buyon 8,3 tonnadan ortiq yoqilg'i resurslari tejab qolindi.

Temir yo'l chilangarlari tomonidan kombinatning 26,5 kilometr temir yo'llarida joriy ta'mirlash ishlari olib borildi. "Prokatnaya" stansiyasida 1 ta to'liq to'plam ko'rsatkich almashtirildi.

Ko'chma temir yo'l chilangarlari jamoasi temir-beton shpallar va mahkamlash qismlarini almashtirgan holda Surxondaryo "Ikkilamchiqorametallar" filialining Termiz uchastkasida – 180 p.m., Jizzax "Ikkilamchiqorametallar" filialida – 750 p.m., Toshkent "Ikkilam-

ishlari doirasida teplovozlarning alohida eskirgan va shikastlangan qismlari, butlovchi qismlari va agregatlarini tekshirish, ta'mirlash va almashtirish, sozlash va sinovdan o'tkazish, shuningdek, ulardan foydalanish sifatini oshirish uchun qisman modernizatsiya ishlari amalga oshirildi. Deponing vagonlar bo'limida kapital ta'mirlash uchun 11 dona dumpkar vagonlari "Xavos" deposiga jo'natilishiga tayyorlanmoqda. Bu temir yo'llarda harakat xavfsizligini – harakatlanuvchi tarkib va tashilayotgan yuklar xavfsizligini ta'minlaydi.

Poezdlarning xavfsiz harakat-



lari S. Rahmonberdiyev va X. Xolmatov, poezd tuzuvchilar A. Xolmatov va S. G'aybulayev, vagon nazoratchisi Sh. Xoliqulov, yo'l montyorlari A. Abdurazoqov, B. Mamayusupov, V. Mamayusupov, K. Asrorov, N. Mamatqulov, O. Berdiqulov, F. Toshpo'latov, A. Bozorboyev, Sh. Rajabov, T. Shukurov, harakatlanuvchi tarkibni ta'mirlash chilangarlari E. Abdiboyev, M. Saxayev, U. Nishonov, T. Mamadaliyev, elektrogaz payvandchilar I. Hasanov va A. Ergashev, yuk qabul qiluvchilar M. Sharipova, N. Shukurova, A. Normatov kabilar hamkasblariga mehnatda ibrat bo'lishmoqda. Ilg'orlar nomini yana davom ettirish mumkin, chunki temiryo'lchilarning ahil jamoasida bunday ishchi-mutaxassislar istalgancha topiladi.



lanishini ta'minlash maqsadida "Zavodskaya" stansiyasida jismoniy va ma'naviy eskirgan uskunalarni almashtirgan holda elektr markazlashtirish postini ishga tushirish ishlari olib borilmoqda.

Temiryo'lchilar jamoasi fidoyilik bilan ishlab, samarali mehnat natijalariga erishib kelmoqdalar.

Yagona logistika markazining Temir yo'l xizmatida sidqidildan ishlab kombinatimiz taraqqiyotiga munosib hissalarini qo'shib kelayotgan ishchi-xodimlar ko'p. Poezd dispetcherlari N. Rahmatullayev va D. Xudoynazarov, stansiya navbatchisi F. Mamajonov, teplovoz mashinist-



chiqorametallar" Sergeli sexida 200 p.m., Qoraqalpog'iston "Ikkilamchiqorametallar" filialida 37,5 p.m. temir yo'l va kran yo'llarida ko'rsatkichlarning eskirgan qismlarini va mahkamlagichlarini qisman almashtirgan holda ta'mirlash ishlari amalga oshirishdi.

Quyuv-prokatlash majmuasi infratuzilmasi uchun yangi temir yo'llarning qurilishi kutilayotgani munosabati bilan yig'ish bazasi uchastkasida rels va shpallarini yig'ish tashkil etilib, yo'nalishni tekislash ishlari boshlab yuborildi.

Temir yo'l xizmatining harakatlanuvchi tarkibni ta'mirlash chilangarlari tomonidan joriy ta'mirlash ishlari doirasida depo teplovoz bo'limida 2 dona teplovoz ta'mirlandi. Bu ta'mirlash



Qadrli temiryo'lchilar!

Mamlakatimizda har yili avgust oyining birinchi yakshanbasida Temiryo'lchilar kuni nishonlanadi. Kelayotgan kasb bayramingiz bilan sizlarni tabriklaymiz. Jonajon Vatanimiz va kombinatimiz ravnaqi va farovonligi yo'lidagi samarali mehnatingizda muvaffaqiyatlar yor bo'lsin!

Barchangizga sihat-salamatlik, ezgu ishlaringizda yutuq va omadlar, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik va fayzu baraka tilaymiz.

Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz temiryo'lchilar!

**Shepie TEFIKOVA,**  
TYX texnik byurosi boshlig'i.



## 11-AVGUST – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH SOHASI XODIMLARI KUNI MEHNATLARI TAHSINGA LOYIQ

Dunyoda kasblar va hunarlar ko‘p. Lekin ular orasida quruvchilar kasbi alohida ajralib turadi, desak yangilishmagan bo‘lamiz. Bu kasb egalarisiz insoniyatning taraqqiyotini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Quruvchilar barcha zamonlar uchun juda zarur bo‘lgan kasb egalaridir. Ularning mehnati evaziga dunyomiz tobora go‘zallashib, rivojlanib bormoqda.

Mamlakatimizda avgust oyining har ikkinchi yakshanbasida Qurilish sohasi xodimlari kuni nishonlanishi haqida qonun qabul qilingan. Qonun respublikada amalga oshirilayotgan qurilish va bunyodkorlik ishlarini jadallashtirish, qurilish sohasida erishilgan yutuqlarni keng targ‘ib qilish, mutaxassislarni rag‘batlantirish, shuningdek, qurilish sohasida mehnat qilayotganlar va keng jamoatchilikning takliflari inobatga olingan holda qabul qilindi. Bayramning har yili nishonlanishi davlatimiz tomonidan quruvchilarga ko‘rsatilayotgan ehtiromning ramzidir.

Quruvchilarning kasb bayrami joriy yilning 11-avgustiga to‘g‘ri keladi. Shu munosabat bilan barcha quruvchilarni, jumladan, kombinat qurilish-montaj bo‘linmasi va kapital qurilish boshqarmasi ishchi-xodimlarini yaqinlashib kelayotgan bayram bilan tabriklaymiz. Ularga mehnat muvaffaqiyatlari, to‘kin dasturxon, tinchlik va xotirjamlik tilaymiz. Bunyodkorlarimizning sog‘lig‘i ularning qo‘llari bilan qurilgan inshootlar kabi mustahkam bo‘lsin!

Kombinat quruvchilarining mehnati tahsinlarga loyiq. Ularning har birida Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shayotgan fidoyi insonlarni ko‘ramiz.

Ularning mashaqqatli mehnati evaziga bugun yurtimiz obodonlashib, ko‘plab zamonaviy bino-inshootlar, korxonalar, ko‘priklar, yo‘llar kabilar barpo etilayotganiga barchamiz guvohmiz.

Bu ishlarda “O‘zmetkombinat” AJ quruvchilarining ham munosib hissalarini bor. Ularning mardonavor mehnati bilan keng ko‘lamli qurilish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

So‘nggi yillarda korxonamizda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning murakkab sharoitlarida ham ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga



katta e‘tibor qaratildi. Kombinatsion ulkan qurilish maydonchasiga aylandi. Qurilish ishlari bugungi kunda ham davom etmoqda. Bunyodkorlik ishlarini kombinat quruvchilari sidqidildan amalga oshirishmoqda. Ular zamonaviy maxsus jihozlar, eng ilg‘or qurilish materiallaridan foydalanyaptilar.

Qurilish-montaj bo‘linmasi jamoasi “Metallurgiya” nimstansiyasining sobiq binosini koks ishlab chiqarish uchun qayta loyihalashtirishda, Elektrda po‘lat eritish bo‘linmasining 2-sonli uzluksiz po‘lat quyish mashinasini rekonstruksiya qilishda, Elektr ta‘mirlash bo‘linmasining 188 o‘rinli va Quyuv-prokatlash majmuasining 180 o‘rinli oshxonalarini qurilishlarida, Zoldir prokatlash bo‘linmasini kengaytirish, 1-sonli qozonxonani Zoldir prokatlash bo‘linmasining kompressor binosiga o‘tkazish, kimyoviy tozalash inshooti uchun yangi bino qurish va boshqa bunyodkorlik ishlarida faol ishtirok etdi.

Quruvchilarimiz ham yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishda bevosita ishtirok etayaptilar. Bugungi kunda mamlakatimizdagi eng yirik investitsion loyihalardan biri bo‘lgan Quyuv-prokatlash majmuasini bunyod etishda quruvchilarmiz ham faol ishtirok etishmoqda. Yaqinda Quyuv-prokatlash majmuasining issiq briketlangan temirlar ombori, markaziy ombori, shuningdek, “Danieli Construction” va “Danieli” kompaniyalari ishchilari uchun ko‘chma yashash joyi qurilishi bo‘yicha ishlarni yakunladik.

Poytaxtimizdagi “Yangi O‘zbekiston” isti-

rohat bog‘ida Qurilish-montaj bo‘linmasi tomonidan ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu yerda ular butun atrofdagi hududni elektr energiyasi bilan ta‘minlash uchun quvvati 110/35/10 kV bo‘lgan yangi podstansiyaning qurilishini amalga oshirishmoqda.

Bular quruvchilarimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining faqat bir qismidir, xolos. Ta‘kidlash joizki, kombinatning Qurilish-montaj bo‘linmasida ayni paytda 360 nafardan ortiq kishi mehnat qilmoqda. Nafaqat kombinatimizning muvaffaqiyatli faoliyati, balki butun hududlarimizning obodligi ham ularning mehnatiga bog‘liqligini jamoamizdagi barcha yaxshi biladi.

Jamoamizda ko‘p yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar, shuningdek, vazifalarni bajarish jarayonida ulardan ortda qolmaydigan, ba‘zi hollarda hatto o‘z ustozlarini ham ortda qoldiradigan yosh ishchilar ko‘pchilikni tashkil etadi. Suvoqchi-bo‘yoqchilar A.Suvonqulov, D.Jambilov, A.Azimov, B.Muhammadiyev, T.Katkov, betonchi Sh.Xoliqov, duradgorlar B.Mahkamboyev, M.Kamolov, tosh teruvchilar J. Saurov, R. Ro‘zimatov, asfaltbetonchi X. Mamatqulov, tom ishchilari F. Nurmatov, A. Egamnazarov, chilangar Sh.Jo‘rayev, elektr-gaz payvandlovchisi D. Mahkamov, po‘lat va temir-beton konstruksiyalarni montaj qiluvchilar A. Baratov, A. Berdialiyev, elektrik T. Xudoyqulov, mashinist F. Davlatov, usta K. Hamidov kabilarining o‘z vazifalarini namunalik bajarib kelayotganliklarini ta‘kidlash joiz.

Albatta, quruvchi bo‘lish korxonamiz, shahrimiz, yurtimiz qiyofasini o‘zgartirishga qaratilgan ulkan va muhim ishlarda faol qatnashish demakdir. Jonajon O‘zbekistonimiz zamonaviy qiyofa kasb etayotganida quruvchilarning ulkan xizmatlari bor.

Aziz quruvchilar. Sizlarni kelayotgan kasb bayramimiz bilan yana bir bor tabriklayman! Barchangizga sog‘lik, baxt va oilaviy farovonlik yor bo‘lsin!

**X. RAHIMOV,**

**Qurilish-montaj bo‘linmasining ishlab chiqarish-texnik bo‘limi boshlig‘i.**





## 2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

O'ZBEKISTON  
YOSHLARIKIMLAR YOSHLAR  
TOIFASIGA KIRADI?

Mamlakatning “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi qonuniga ko'ra, 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan o'zbekistonliklar yoshlar toifasiga kiradi. Bu yoshda, qoida tariqasida, mamlakat yoshlari umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlarida tahsil oladi.

\*\*\*

ZARUR SHART-  
SHAROITLAR  
YARATILGAN

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, mamlakatimizda yoshlarga doir ko'plab qonun hujjatlari qabul qilingan.

Faqatgina keyingi yillarda qabul qilingan bunday qonun hujjatlari O'zbekistonda yoshlarning real muammolarini aniqlash va ularning yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2016-yilning 14-sentabrda “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. 2020-yilning 30-iyunida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonining qabul qilinishi va mazkur qonundan kelib chiqadigan vazifalar, shuningdek, O'zbekistonda 30 iyun – “Yoshlar kuni” deb e'lon qilindi.

Turli sohalarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan fidoyi yoshlarimizni rag'batlantirib borish maqsadida “Mard o'g'lon” davlat mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medallari ta'sis etildi. O'zbekiston Prezidenti tomonidan 2018-yil 27-iyunda “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to'g'risida”gi Farmon imzolandi. Bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo'lgan ushbu Farmon bilan dastlab “Yoshlar – kelajagimiz” jamg'ar-masi tashkil etilib, uning asosiy mablag'lari yoshlarning ilg'or g'oyalarini, biznes va ishbilarmonlik tashabbuslarini, yangidan-yangi startaplarini, g'oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kreditlar va mol-mulki lizingga berish borasidagi imkoniyatlar taqdim qilingan.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida yoshlar hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli ham mamlakatimizda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, tashabbuskor va sog'lom yoshlarni tarbiyalash, ular bilan ishlashni yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishda ishlarni yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida 2024-yilga mamlakatimizda – “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili” deb nom berildi.

SALOHIYAT VA IQTIDORLARINI  
NAMOYON QILISHLARI UCHUN  
IMKONIYAT

“O'zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati o'zining ishlab chiqarish va ilmiy salohiyati bilan Markaziy Osiyoning eng yirik korxonalaridan biri hisoblanadi. Bugungi katta kombinat raqobat maydonida, sanoat va metallurgiya tarmoqlari orasida mustahkam o'rin olish, shu bilan bir qatorda undan ham katta marralarni egalashdek muhim vazifalarni amalga oshirishga kirishgan. Buning uchun ilm, ilm va yana ilm bilan shug'ullanishni zamon talab qilmoqda.



Ushbu maqsad yo'lida “O'zmetkombinat” AJda yosh ishchi-xodimlarning zamonaviy bilimlari, ilmiy salohiyatlaridan samarali foydalanish uchun alohida e'tibor berilmoqda. Kombinats boshqaruvi bu borada yoshlarning o'z maqsadlariga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratishga va har tomonlama ko'mak berishga harakat qilmoqda.

Yoshlar oyligi doirasida 27-iyun kuni Metallurglar madaniyat saroyida “Rahbar va yoshlar” uchrashuvi va “Yoshlar innovatsion konferensiyasi” tashkil etildi.

Bu tadbirni “O'zmetkombinat” AJ boshqaruvi raisi – bosh direktor Rashid Pirmatov ochdi. Kombinatsimiz yanada taraqqiy etishida yoshlar munosib hissalarini qo'shishlariga ishonch bildirib, ularga muvaffaqiyatlar tiladi. Noan'anaviy, rasmiyatchilikdan holi o'tkazilgan ochiq muloqotda yoshlar o'z muammolarini, fikr-mulohazalarini bildirdilar. Ular o'zlarini o'ylantirayotgan masalalar, qiziqtirayotgan savollarni o'rtaga tashladilar.

Tadbirda yoshlarning maqsadlariga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilishiga har tomonlama ko'mak berish kombinat rahbarlarining eng ustuvor vazifasi bo'lib qolishi alohida ta'kidlab o'tildi.

“Yoshlar innovatsion konferensiyasida” 11 ta loyiha taqdimoti o'tkazildi.

Yosh iqtidorli metallurglardan To'liq Nosirovning “Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va po'lat zoldirlar ishlab chiqarishni ko'paytirish”, Rahimjon Sultonovning “Ikkilamchiqorametal” filiallari faoliyati tarixi va ularning texnik taraqqiyoti”, Dilmurod Yoqubovning “Elektrda po'lat eritish pechlarining aspiratsiya changidagi ruhni tiklash jarayonini tadqiq qilish”, Bunyod Fozilovning “Texnogenik mayda chiqindilarni briketlash”, Doston Jalilovning “Zoldir prokatlash stanining tepadan kirish vintli kalibrlari uchun geometrik ko'rsatkichlarni aniqlash”, Doston Xo'jaqulovning “Milliy charxpalak” va “Mini elektroskuter”, Ahadjon Norqulovning “Shixta oraligi kranlari-



ning ishi”, Abror Madiyovning “Quyish-mexanika bo'linmasining yoyli po'lat pechining yonish yoy regulyatorini ishlab chiqish va joriy etish”, Jasur Maxamatjonovning “Ekologiyani asrash”, Faxriddin Xudoyorovning “Quyish-mexanika bo'limasida quymalar olish zamonaviy texnologiyasi” va Botir Hoshimovning

“Yoyli po'lat eritish pechining (“YOPEP-100 UMK”) ning kichik gumbazini markazlashtirish uchun maxsus qurilmadan foydalanish” kabi kombinatda bugungi kundagi dolzarb loyihalar taqdim etildi.

Kombinat rahbariyati bu loyihalarni qo'llab-quvvatlab, ularni amalga oshirish bo'yicha fikrlarini bildirib o'tdi.

Shundan so'ng taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Unda dastlab 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan “O'zmetkombinat” AJ boshqaruvi raisi – bosh direktori Rashid Pirmatov kombinat Matbuot xizmati xodimlarini tabrikkladi. Matbuot xizmati xodimlariga, 11 nafar loyiha mualliflariga, bir guruh yosh metallurglarga “Tashakkurnoma” va qimmatbaho esdalik sovg'alari tantanali ravishda topshirildi. Shuningdek, “Yosh kitobxon”, “Yosh laborant” ko'rik-tanlovida g'olib va sovrinli o'rinlarni egallagan tanlov ishtirokchilariga ham “Tashakkurnoma” hamda pul mukofotlari taqdim etildi.

Tadbirdan so'ng ishtirokchilar “Baxt uyi”ga – bayram dasturxoniga taklif etildi. U yerda Metallurglar madaniyat saroyining badiiy havaskorlari konsert dasturini namoyish etishdi.

Yoshlar oyligi doirasida kombinatda o'tkazilgan tadbirlar barchada katta taassurot qoldirdi.

Yoshlar oyligi doirasida o'tkazilgan bu tadbirlarda “O'zmetkombinat” AJ yoshlarini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bir qator masalalar qamrab olindi. Bu esa kombinatning katta xazinasini bo'lgan yoshlarimizga o'z salohiyati, iqtidorini namoyon qilish uchun yanada kengroq imkoniyatlar yaratishga qaratilgan.

Diyor  
MAMATOV.





# HADIS ILMINING SULTONI

Imom Ismoil al-Buxoriy - taniqli muhaddis olim (muhaddislik - hadislar haqidagi fan, payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.ning islom dini uchun xos so'zlari va ishlari haqidagi xabarlar) va ahamiyatiga ko'ra Qur'ondan keyingi o'rinda turuvchi "Al Jomiy as Sahih" kitobining muallifi.

Imom Buxoriy 810-yil ilmi, ahli fazl va solih oilada (hijriy 194-yilning shavvol oyidan o'n uch kun qolganda, juma namozidan keyin) Buxoro shahrida dunyoga keldi.

U kishining to'liq ismlari Abu Abdulloh Muhammad ibn Abul Hasan Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug'iyra ibn Bardizba Jo'fiy Buxoriydir. Imom Buxoriyning otasi Abul Hasan Ismoil ibn Ibrohim taqvodor ulamolardan edi.

Ismoil kichiklik paytlaridayoq otadan yetim qoladi va akasi Ahmad bilan onasining tarbiyasida o'sdi. 5-6 yoshlaridan Qur'on va diniy ilmlarni, xususan, hadislarini o'rganishni boshlagan. Mukammal xotira egasi bo'lib, u o'qiganlarini tez o'rganib olar, so'ngra ularni har tomonlama tahlil qilardi. 16 yoshiga kelib, u o'sha zamonlarning barcha hadis to'plamini yoddan bilgan.

825-yil Al Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan birga haj safarini amalga oshirish uchun Makka va Madinaga yo'l olishadi. Ziyoratni amalga oshirgach, onasi va akasi Buxoroga qaytib kelishadi, u esa turli musulmon davlatlari bo'ylab sayohat qilib, o'z davrining taniqli ustozlaridan ta'lim oladi.

Imom Buxoriy hayotlari davomida ko'p marotaba safarlarda bo'ldi. U kishi qariyb barcha islomiy mamalakatlariga, ba'zi birlariga esa bir necha marotabadan safar qilgan.

"Men Suriya, Misr va Arabiston yarim orollarini ikki marta ziyorat qildim, deb yozadi imom



Buxoriy. Bir necha marta Basrada bo'ldim, olti yil Hijozda (hozirgi Saudiya Arabistonida) yashadim, Kufa va Bag'dod shaharlarida necha marta bo'lganimni eslay olmayman".

Imom Buxoriy yirik olimgina bo'lib qolmay, u kishi axloqi bilan ham barchaga namuna bo'lgan. Muruvvati, diyonati, saxovatpeshaligi bilan ham katta e'tibor qozongan edi. U ilmiy izlanishlari davomida 100 mingta sahih hadis va 200 mingta sahih bo'lmagan hadisni yoddan bilgan. Imom Buxoriyning kotibi uning hadis ilmiga ishtiyoqini tavsiflab shunday yozadi: "Agar imom Buxoriy bilan safarga chiqsak, kechga yaqin birorta xonadonda tunash uchun qolar edik. O'sha kechasi imom Buxoriy 15 martadan 20 martagacha turib, sham yoqib, yodiga tushgan hadisni yozib, keyin yana yotardi".

Imom Buxoriy o'zining ijodiy izlanishlari samarasi orqali kelajak avlodga qimmatli durdona asarlar yaratib qoldirdi. U yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Ular sarasiga "Jome' as-sahih", "al-Adab al-mufrad", "at-Tarix al-kabir", "at-Tarix al-avsat", "at-Tarix as-sag'ir", "Birr al-voidayn", "Kitob al-kuno" (bu asar "at-Tarix al-kabir"ning bir juzi hisobla-

nadi), "Kitob al-ilal", "Asomi as-sahoba", "Qazoyya as-sahoba va-t-tobein" (olimning 18 yoshida yozgan kitobi) va boshqalarni kiritish mumkin. Afsuski, bu asarlarning ko'pi bizgacha yetib kelmagan.

"Sahih ul-Buxoriy"ning ajralib turadigan xislati shundan iboratki, ungacha hadis jamlagan barcha muhaddislar eshitgan barcha hadislarini sanadlari va ishonchli tomonlariga e'tibor qilmay kiritaverganlar. Ammo hadis ilmining gulto'ji bo'lmish imom Buxoriy roviylarga va sanadlarga alohida e'tibor qaratib, ularning ishonchli bo'lganlarini ajratib, alohida kitob shaklda keltirganlar. Bu hadislarini yig'ish jarayoni muhaddisidan juda katta qiyinchiliklarni talab qilgan bo'lsada, hazrat bu sharaflini birinchi bo'lib bajarganlar. Bu asar yozilganiga 1 200 yildan oshgan bo'lsada, hanuzgacha u barcha islom diyorlari va musulmon xonadonlarida Qur'oni karimdan keyin turuvchi muqaddas manba hisoblanadi. Hatto ko'plab islom ta'lim muassasalarida hadis ilmining tayanchi bo'lib kelmoqda.

"As-Sahih"ni yozgach, u Buxoroga qaytadi va barcha ilm istaganlarga ta'lim beradi, bu orqali u odamlarni savodga o'rgatib, jamiyatga katta foyda olib keladi. Uning obro'si shu qadar baland bo'lganki, unga noma'lum hadis xalqda ishonchsiz hisoblangan.

O'z irodasiga qarshi ravishda u Buxoro hukmdori Tohirid Xolid ibn Ahmad bilan nizolashib qoladi va Samarqand yoqasidagi Xartang qishlog'iga ko'chib o'tishga majbur bo'ladi, shu yerda u 870-yil vafot etgan.

Dunyo muhaddislar imomi va hadis ilmi sultonining Samarqand viloyatidagi Xartang qishlog'ida joylashgan qabri ziyoratchilarning muqaddas qadamjosiga aylangan.

## KASABA UYUSHMALARI HAYOTIDAN

# HAMKORLIKNING MUSTAHKAM RISHTALARI

Dini, urf-odatlari, madaniyati mushtarak ikki davlat - O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida so'nggi yillarda barcha sohalarda keng ko'lamli aloqalar o'rnatilmoqda. Davlat va nodavlat tashkilotlarning tashriflari uyushtirilib, hamkorlik keng yo'lga qo'yilyapti.

Yaqinda halqaro hamkorlik doirasida Tojikiston Respublikasining "Tojik metall" zavodi kasaba uyushmasi delegatsiyasi "O'zmetkombinat" AJga tashrif buyurdi.

Ushbu tashrifdan ko'zlangan maqsad Tojikiston va O'zbekiston kasaba uyushma tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, kasaba uyushmalari tomonidan olib borilayotgan ishlar yuzasidan o'zaro tajriba va fikr almashish, hamkorlikni yanada kengroq yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Mehmonlar dastlab kombinat tarixi muzeyida bo'lib, muzeyning faoliyati, undagi korxonalar qurilishidan tortib, kombinatning ayni paytdagi ishlab chiqarish jarayonlari, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, taniqli metallurglar haqida qo'yilgan eksponatlar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Ikki mamlakat Prezidentlarining oqilona siyosati natijasida xalqlarimiz do'stligi mustahkamlangani e'tirof etildi.

Shundan so'ng kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi E. Veliullayeva "Tojik metall" zavodi kasaba uyushmasi delegatsiyasi tomonidan esdalik sovg'alarini qabul qilib oldi.

Tashrif davomida mehmonlar kombinat Bir-



lashgan kasaba uyushmasi qo'mitasida bo'lib uning faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. Mehmonlar kombinat faoliyati haqida o'zlarining taassurotlarini bildirar ekanlar, tashkil etilgan tadbir barcha uchun samarali bo'lganligini va bu kabi tajriba almashish tadbirlarini kelgusida ham davomli o'tkazib borish kasaba uyushmalari faollari faoliyatida katta rol o'ynashini alohida qayd etib o'tdilar.

"Tojik metall" zavodining kasaba uyushmasi delegatsiyasi ekskursiya davomida Elektrda po'lat eritish bo'linmasda, Quyuv prokatlash majmuasida bo'lishib ishlab chiqarish va qurilish jarayonlari bilan yaqindan tanishishdi.

"Tojik metall" zavodi kasaba uyushmasi xodimlarining "O'zmetkombinat" AJga o'zaro tajriba almashish maqsadida qilgan tashriflari ikki



tomonlama samarali va foydali o'tganligi, har ikki tomon kelgusida hamkorlikni davom ettirish va o'zaro tajriba almashishdan umidvor ekanligi ta'kidlandi.

**Bahodir RAHMONQULOV.**



YONG'IN XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA O'TKAZILAYOTGAN TADBIRLARDA

# "DOLZARB 30 KUN"

Yurtimizda yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida 1-iyuldan 1-avgustga qadar "Dolzarb 30 kun" tadbirlari o'tkazilmoqda. "O'zmetkombinat" AJ mehnat jamoalari ham tadbirlarda faol ishtirok etmoqda. Kombinatda "Dolzarb 30 kun"ni tashkiliy tomondan namunali o'tkazish uchun chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Tadbir doirasida kombinatga tegishli bo'lgan bino va inshootlarning yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rilmoqda. Jumladan, "Dolzarb 30 kun"da ob'ektlarda o't o'chirgichlarning qo'shimcha zahirasini yaratish, barcha elektr ta'minoti tizimini muvofiq holga keltirish, elektr jihozlaridan xavfsiz foydalanish qoidalariga qat'iy amal qilinishi ustidan nazoratni o'rnatishga katta e'tibor qaratildi. Shuningdek, bino va inshootlar va unga tutash bo'lgan hududlarni yonishga moil bo'lgan begona o'tlar, qurigan o'simliklar va chiqindilardan tozalash bilan birga daraxtlar, gullarning issiqda qurib qolishining oldini olish maqsadida ularni sug'orish, ob'ektlarda yong'inni o'chirish uchun yetarli suv zahirasini tayyorlash, evakuatsiya yo'lla-

rining ochiqqligini ta'minlash kabi tadbirlar amalga oshirildi.

"O'zmetkombinat" AJ ob'ektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi inspektorlari kombinat ishchi-xodimlari bilan "Yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha "Dolzarb 30 kun" tadbiri doirasida favqulodda vaziyatlar va yong'inlarni oldini olish hamda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga qaratilgan targ'ibot ishlari olib borildi.

Ana shunday uchrashuvlar Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish, Elektrda po'lat eritish bo'linmalarida ham tashkil etildi. Bunday profilaktik tadbirlarda birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish, yong'inni keltirib chiqaruvchi holatlardan qanday qilib ehtiyot bo'lish, nosoz elektr moslamalaridan foydalanmaslik kabi zarur tavsiyalar berildi.



Hurmali metallurglar!

Siz nafaqat bu oylik davomida balki undan tashqari ham har kuni, har soatda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishingiz kerak. Ana shunda Siz yong'inning kelib chiqishini bartaraf etgan, davlat va shaxsiy mol-mulkingizni, o'zingizni va atrofingizdagi insonlar hayotini asrab qolgan bo'lasiz.

Javlon UMRZOQOV.

SPORT UNI ELGA TANITDI

## SPORTIMIZ FIDOYISI QUTLUG' YOSHDA

Shahidbek Yo'ldoshev nomini shahrimizdagi deyarli har bir futbol ishqibozi biladi. U 1975-1995-yillarda "Metallurg" futbol jamoasiga rahbarlik qilgan. Uning boshchiligida hamshaharlarimiz ikki marta O'zbekiston kubogini qo'lga kiritgan.

Sh. Yo'ldoshev boshchiligida "Metallurg" jamoasi o'n marta Toshkent viloyati chempioni bo'ldi, 11 marta poytaxt viloyati kubogini oldi. Jamoamiz o'zining eng katta g'alabasiga 1985-yilda erishdi. "Metallurg" fizkultura jamoalari o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston kubogi o'yinlarida barcha raqiblarini yengib finalga chiqadi. Toshkent traktor zavodi sport majmuasida bo'lib o'tgan final o'yinida jamoamiz Muborak shahrining "Fakel" jamoasini 1:0 hisobida yengib O'zbekiston kubogi sohibi bo'ladi.

Shu davrdagi jamoaning barcha futbolchilari kombinatning turli tarkibiy bo'linmalarida ishlasalarda ularni sevgan mashg'ulotlari - futbol birlashtirib turardi. Metallurg-futbolchilar ishdan ajralmagan holda to'p sursalarda yashil maydonda o'zlarining nimalarga qodir ekanliklarini amalda ko'rsatishdi.

Oradan besh yil o'tib, 1990-yilda "Metallurg" ikkinchi marta O'zbekiston kubogida zafar quchdi. Bu safar bekobodliklar finalda Toshkentning "Start" jamoasini 2:0 hisobida mag'lub etib, yana O'zbekiston kubogini qo'lga kiritdi. Ushbu g'alaba "Metallurg"ga sobiq ittifoq mamlakati kubogi - "Millionlar kubogi"da qatnashish huquqini berdi. Ushbu musobaqada jamoamiz yarim finalga chiqdi.

Toshkent viloyati va respublika musobaqalarida erishgan katta muvaffaqiyatlari uchun 1992-yilda "Metallurg" jamoasi O'zbekiston chempionatining birinchi ligasiga yo'llanma oldi.



Shahidbek Yo'ldoshev "Metallurg" futbol klubining birinchi direktori sifatida bolalar va o'smirlar futboliga katta e'tibor qaratgan. Uning ko'plab shogirdlari hozirda mamlakatimizning kuchli jamoalarida murabbiy sifatida faoliyat yuritishmoqda.

"Sementchi" sport - sog'lomlashtirish majmuasi direktori lavozimida mehnat faoliyatini yakunlagan Sh. Yo'ldoshev pensiyada bo'lishiga qaramay faol tarzda sport bilan shug'ullanadi.

Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar Kengashi Bekobod shahar hududiy filiali tomonidan o'tkazilayotgan tennis musobaqalarida faol ishtirok etib, g'oliblar safidan joy olib kelmoqda.

O'z davrining mashhur murabbiysi ko'plab futbolchi va murabbiylarga ustozlik qilgan. Uning tajribasi boshqalarga ibrat bo'lishga arziydi. "Metallurg" jamoasi O'zbekistonda yuksak marralarni zabt eta olgani Shahidbek Yo'ldoshevning mehnatsevarligi, kuchli xarakteri, o'z kasbining mohir ustasi bo'lganligining bevosita isbotidir.

5-iyul kuni Shahidbek Yo'ldoshev 75 yoshga to'ldi. Shu munosabat bilan minglab bekobodlik futbol ishqibozlari uni qutlug' yoshi bilan chin yurakdan tabriklab, mustahkam sog'lik, uzoq umr va omad tiladilar. Biz ham ularga qo'shilib, Bekobod futboli rivojiga eng katta hissa qo'shgan insonni tabriklab, unga salomatlik, baxt va xotirjamlik tilaymiz.

Mirzaburxon DO'STMURODOV.

## TA'TIL MAROQLI O'TMOQDA



Har bir faslning o'ziga xos tarovati va go'zalligi bor. Lekin yozning gashti o'zgacha. Ayniqsa, bolajonlar uchun intiq kutiladigan bu g'aroyib faslning unutilmas kechinmalari ularga bir dunyo hayrat va hayajon bag'ishlaydi.

Yurtimizda yoshlarning bilimni, zukko shu bilan birga sog'lom voyaga yetishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, ayni kunlarda respublikamizning barcha hududlaridagi bolalar oromgohlarida o'quvchilar yozgi ta'tilni maroqli va mazmunli o'tkazishmoqda.

Sirdaryo bo'yining so'lim go'shasida joylashgan kombinatimizning "Sohil" oromgohida ham bolalar yozgi ta'tillarini maroqli o'tkazmoqdalar. Yoz mavsumida bu maskanda 700 nafar o'g'il-qiz dam olib, hordiq chiqarishi rejalashtirilgan edi. Hozirgacha har biri 12 kundan iborat bo'lgan uch mavsumda 400 nafardan ziyod o'g'il va qizlarimiz bu oromgohda mazza qilib dam olishdi.

Oromgohda ayni kunlarda mavsumning qizg'in pallasini. Tibbiyot hamda ichki ishlar xodimlari tomonidan bolalarning salomatligi va xavfsizligi doimiy nazoratga olingan. Tashkilotchilar, tarbiyachi va yetakchilar tomonidan bolalarning har bir kuni qiziqarli va zavqli o'tishiga imkoniyat yaratilmoqda. Bolajonlarimiz turli xil tadbirlarga katta qiziqish bilan qatnashmoqdalar.

Ismoil XOJIMURODOV.



FIRIBGARLARGA ALDANIB QOLMANG!

## TEKIN PISHLOQ QOPQONDA BO'LADI

### “SAXIY BOY” “O'LJA” TOPDI

Yaqinda kombinatimizda ishlaydigan bir yigit firibgarlar qurboniga aylandi. U telegram orqali bir kishi bilan tanishib qoladi. U o'zini saxovat-pesha, savobtalab deb tanishtiradi. Xorijda boy yashashini, ishi ko'pligidan O'zbekistonga borishga ham vaqt topa olmayotganligini aytib, muhtojlarga xayriya qilishiga imkoniyati cheklanganligini aytib, bu borada undan yordam so'raydi. “Vatandoshlarimga yaxshilik qilmoqchiman. Bu ishni amalga oshirish uchun ko'plab insonlar orasidan sizni tanladim”, degan u.

Xorijlik boy vatandoshimiz 50 ming dollar pulni unga naqd dollarda jo'natishini, uning 30 foizini xizmati uchun o'ziga olib, qolganini hudud-dagi ehtiyojmandlarga tarqatishi kerakligini aytgan. U keyinchalik “o'lja”sining nafs va ochko'zligini hakkalak orttirish uchun: “Siz menga yoqib qoldingiz. Jo'natayotgan pulning hammasini o'zingizda olib qoling. Shu pulga “Malibu” oling. Men maboda O'zbekistonga ta'tilga borsam meni mashinangizda aylantirib yurasiz”, deb u bilan aloqada bo'lib, ishonch qozonib boradi.



### “ISHONCHLI ODAM” YO'LGA TUSHDI

“Saxiy boy” 50 ming dollarni posilka pochtaga joylab, uning suratini telegram orqali “o'lja”siga jo'natadi. Keyin pulni O'zbekistonga o'zining ishonchli odami orqali yuborayotganini ma'lum qiladi: “O'zbekistonga kelganidan so'ng odamim siz bilan bog'lanadi”, – deydi boy.

Ko'p kuttirmasdan bu “ishonchli odam” “o'lja” bilan bog'lanadi. Pulni olib yo'lga chiqqanini bildiradi.

Ayni shu nuqttagacha “o'lja”dan biror pul yoki boshqa narsa so'ralmagan. Natijada, uning firib-

Oxirgi paytda firibgarlar qurboniga aylanayotganlar ko'payib bormoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, fuqoralarimizda huquqiy va moliyaviy savodxonlik yetishmasligi firibgarlar qurbonlari soni ortayotganining asosiy sababi bo'lmoqda. Aksar odamlar ongli ravishda aldov sxemalari mualliflari bilan muloqotga kirishishi ularning tuzoqqa tushishiga sababchi bo'layotgan ekan. Ko'pchilik o'zining nafs va ochko'zligi tufayli firibgarlarning qurbonga aylanyapti.

garlarga ishonchi ortib borib, pulni intizorlik bilan kuta boshlagan.

Firibgarlar ko'rishganki, “o'lja” “xo'rakka ilindi”. Endigi navbat asosiy maqsad – uning pulini olishga urinish edi.

### 9 MILLION SO'MLIK XO'RAK

“Ishonchli odam” O'zbekistonga yetib kelgani, pulni bojxonadan o'tkazish uchun 9 million so'm kerakligini, unda buncha pul yo'qligi uchun zudlik bilan o'zi yuborayotgan raqamga pul o'tkazish shartligini aytadi. Aks holda bojxonadagilar posilka pochtaga olib qo'yishlarini bildiradi.

Ichida biroz shubha uyg'ongan “o'lja” vaziyatni “saxiy boy”ga bildiradi. U esa “odamimning aytganini qiling, pul qo'lingizga yetib borgach, qilgan xarajatingizni qaytarib olasiz”, deydi.

“O'lja”da buncha pul yo'q edi. Shunda u oiladagilardan, qarindoshlari va do'stlaridan qarz so'raydi. Pul nimaga kerakligini bilgach ularning hammasi “o'lja”ni yo'ldan qaytarishga harakat qiladilar. Bu firibgarlik ekanligini qayta-qayta unga tushuntiradilar. Biroq afsuski “o'lja” firibgarlarga ishonib, nafsiga aldanib qolgan edi.

### MENING NAFSIM BALODIR...

“9 million so'mdan qizg'onib, 50 ming dollardan quruq qolamanmi, yo'q nima bo'lsa bo'lsin men tavakal qilaman. Agar tavakal qilmasam shuncha puldan quruq qolib bir umr afsuslanib yurmayman” deb o'z so'zida turib oladi. Hattoki uni ota-onasi, qarindoshlari ham bu yo'ldan qaytara olmaydi. Natijada u bir amallab qarz to'plab 9 million so'mni berilgan raqamga o'tkazib yuboradi.

Pul firibgarlarning qo'lga tushgach ular “o'lja”laridan yana pul shilib olishga harakat qiladilar. Oradan ko'p o'tmay “ishonchli odam”dan “o'lja”ning telegaramiga “Bojxonachilar posilka pochtaga skanerdan o'tkazib, unda katta miqdordagi naqd pul borligini bilib qolishdi. U sizning nomingizga yo'llangan. Shuning uchun ham chegaradan noqonuniy tarzda katta miqdorda pul o'tkazish bo'yicha sizning ustingizdan jinoiy ish ochishmoqchi. Ular bilan kelishish uchun zudlik bilan bizga 20 million o'tkazib bering”, degan xabarni va bojxona muhri bosilgan posilka pochtaga suratini jo'natishadi.

Qo'rquvga tushib qolgan “o'lja” yana “saxiy boy”

bilan aloqaga chiqadi. U esa: “Qo'rqmang. Men bor ekanman sizga hech nima qilmaydi. So'ralgan pulni berving. Xarajatlaringizni oshig'i bilan qaytaramiz”, deb unga taskin beradi.

“O'lja” nima qilishini bilmay qoladi. Yaqinlaridan yana pul so'raydi. Bu safar unga pul beradiganlar topilmaydi. Buning ustiga yaqinlari bu safar huquqshunos orqali unga chegaradan pul o'tkazishdagi qonunchilik hujjatlari bilan tanishtirishadi.

“O'lja” bu haqda “saxiy boy” bilan gaplashgani-dan so'ng firibgarlik telefoni o'chadi. Shundagina bu yigit ularning barchasi yolg'on ekanini tushunib yetadi va 9 million so'mga chuv tushganini anglaydi.



### YAQINLARINGIZGA QULOQ SOLING

Aslida, bu firibgarlik ekanini anglashga har qanday yuk bojxona ko'rigidan skaner orqali o'tishi va tekshirishini, uni ochib ko'rmaslik uchun pul talab qilinmasligini, bunday miqdordagi naqd pul mablag'i bir davlatdan ikkinchi davlatga shunchaki posilka pochtaga chiqarib yuborilmasligini tushunishning o'zi yetarli edi.

Afsuski mana shunday fuqoralarimiz huquqiy va moliyaviy savodxonlik yetishmasligi tufayli firibgarlik qurboni bo'lishmoqda.

Aziz metallurklar, bekobodliklar!

Firibgarlar turli usullardan foydalanib, odamlarni aldab pullarini shilib olishning turli yo'llarini o'ylab topishmoqda. Biz ularga ishonmaslikka, nafsingizning qurboniga aylanmaslikka, shubhali holatlarda atrofdagi yaqinlardan, o'qimishli kishilardan maslahat olib, unga amal qilishga chaqiramiz. Ana shunda kombinatimizda ishlaydigan bu yigit kabi afsus-nadomat chekib qolmaysiz!

Ismadiyor MAMATQULOV.

## MULK DAXLSIZ VA U DAVLAT HIMOYASIDA

Joriy yilning 24-iyun kuni jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi binosida, ochiq sud majlisida “O'zmetkombinat” AJ mulkini talon-taroj qilishda ayblangan Rustam Mirsalimovga nisbatan to'plangan ma'muriy ishni ko'rib chiqdik.

Huquqbuzar 2024-yil 23-may kuni “O'zmetkombinat” AJning 4-sonli nazorat o'tish joyidan o'tayotgan vaqtida harbiy xizmatchilarda shubha uyg'otadi. Shu joydagi harbiylar tomonidan tekshirilganida, R. Mirsalimovning oyoq kiyimi tagida mis bo'laklari yashirilganligi ma'lum bo'ldi. Jami bo'lib uning oyoq kiyimida umumiy narxi 240 000 so'mlik 3 kilogramm mis bo'laklari borligi aniqlangan.

Sud majlisida huquqbuzar tariqasida so'roq qilingan Rustam Mirsalimov o'z aybiga iqror bo'ldi. Haqiqatdan ham 23-may kuni “O'zmetkombinat” AJning 4-sonli nazorat o'tish joyida harbiy xizmatchilar uni yashirincha olib chiqqayotgan mis bo'laklari bilan ushlab olishganligi haqida ko'rsatma berdi.

Sud ish hujjatlari bilan tanishib chiqib, huquqbuzarning aybi uning sud majlisida bergan iqrorlik ko'rsatuvidan tashqari, dastlabki surishtiruv organi tomonidan tuzilgan ma'muriy bayonnoma, tushuntirish xatlari hamda to'plangan ish hujjatlariga asosan to'liq o'z isbotini topgan, degan xulosaga keldi.

Sud jazo tayinlashda O'zbekiston Respublika-

si MjTKning 61-moddasi 1-qismiga ko'ra sodir etilgan huquqbuzarlikning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini, yetkazilgan zararining qoplanganligini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni e'tiborga oldi.

Sud, huquqbuzarga nisbatan qonun sanksiyasida nazarda tutilgan jarima jazosini qo'llashni lozim deb hisobladi. Unga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida – 340 000 so'm jarima jazosi qo'llanildi.

Farhod ZOKIROV,  
Jinoyat ishlari bo'yicha  
Bekobod shahar sudi sud'yasi.



## ISSIQ KUNLARDA QANDAY SHAROITLAR YARATILADI?

**Issiq kunlari ishxonalarda harorat yuqori bo'lganda mehnat qilish karrasiga qiyinlashadi. Bu sog'liqqa ham zarar. Ish beruvchi xodimlarga issiq kunlari sharoit qilib berishi belgilanganmi?**

**E. Toshmatov.**

Mehnat kodeksida ish joylariga qo'yiladigan talablar, shu jumladan harorat bilan bog'liq talablar ham ko'rsatib o'tilgan.

Avvalombor ish joylari joylashtiriladigan binolar (inshootlar) tuzilishiga ko'ra ularning belgilangan funksional maqsadiga hamda mehnat xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish talablariga mos bo'lishi kerak.

Mehnat kodeksining "Ish joylariga qo'yiladigan talablar" nomli 361-moddasida jumladan "Ish vaqti davomida ish o'rinlari joylashgan xonada harorat, yorug'lik, shuningdek ventilyatsiya sanitariya normalari va qoidalariga mos bo'lishi

kerak", deyilgan.

Issiq paytlarda ayrim xodimlarga qo'shimcha tanaffus berilishi ham kodeksda keltirilgan. 205-moddaga ko'ra Ish kuni (smena) davomida dam olish va ovqatlanish uchun tanaffusdan tashqari xodimlarga quyidagi qo'shimcha tanaffuslar beriladi:

- qonunchilikda, sanitariya normalari va qoi-



dalarida yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan, texnologiya hamda ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish yoxud ushbu mehnat faoliyati turining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq tanaffuslar;

- yilning issiq yoki sovuq mavsumida ochiq havoda yoxud sovitilmaydigan yoki isitilmaydigan yopiq xonalarda ishlaydigan, shuningdek yuk ortish-tushirish ishlarida band bo'lgan shaxslar uchun maxsus tanaffuslar.

Ish beruvchi isitish, sovitish uchun asbob-uskunalar bilan jihozlangan va xodimlarning dam olishi uchun yaroqli bo'lgan xonalarni ta'minlashi shart. Bunday tanaffuslar taqdim etiladigan ishlarning ro'yxati, harorat ko'rsatkichlari, shuningdek ushbu tanaffuslarning davriyligi va davomiyligi ish o'rinlarini mehnat sharoitlari hamda asbob-uskunalarining jarohatlash xavfi bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish asosida belgilanadi.

## O'RINDOSH XODIMLARGA USTAMA, YORDAM PULI BERISH TARTIBI QANDAY?



**O'rindoshlik asosida ishlayotganlarga ustama, yordam puli berish tartibi qanday bo'ladi?**

**K. Salimova.**

Mehnat kodeksining 438-moddasiga asosan agar jamoa shartnomasida yoxud ish beruvchi tomonidan kasaba uyushma qo'mitasi bilan kelishilgan holda qabul qilingan o'zga ichki hujjatda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, o'rindoshlik asosida ishlovchilar mehnatiga haq to'lash shakllari va tizimlari, mukofotlar, qo'shimcha haq, ustamalar, rag'batlantiruvchi to'lovlar to'lash mazkur ish o'zi

uchun asosiy ish bo'lgan xodimlarga belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ya'ni agar ishxonaning biror ichki hujjatida o'rindosh xodimlarning mehnatga haq to'lash borasida cheklov o'rnatilmagan bo'lsa, ish beruvchi o'rindoshlik asosida ishlovchi xodimga asosiy ishdagi xodim bilan teng haq - ustama, moddiy yordam to'lashi lozim. Mazkur qoida ichki o'rindoshlarga ham tegishli.

## INTIZOMIY JAZONING MUDDATI QANCHA?

**Xodimga intizomiy jazo qo'llanilgandan so'ng kasaba uyushmasining iltimosnomasi va xodimning iltimosnomasiga asosan intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlashning eng kam muddati qancha bo'lishi kerak?**

**B. Aliyev.**

Mehnat kodeksi qoidalarida intizomiy jazoni olib tashlash uchun minimal muddat belgilanmagan. Istalgan vaqtda intizomiy jazo olib tashlanishi mumkin. Mehnat kodeksining 315-moddasiga asosan intizomiy jazoning amal qilish muddati u qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak. Agar intizomiy jazo qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida xodimga yangi intizomiy jazo qo'llanilmasa, u intizomiy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi. Ya'ni bu degani ish beruvchi tomonidan intizomiy jazo olib tashlanmasa ham o'z o'zidan bekor bo'lib ketadi degani.

Mazkur moddaning 3-qismi-



ga asosan ish beruvchi intizomiy jazoni o'z tashabbusiga ko'ra, xodimning bevosita rahbarining, kasaba uyushmasi qo'mitasining iltimosnomasiga, shuningdek xodimning iltimosiga ko'ra, bir yil o'tguniga qadar muddatidan oldin olib tashlash huquqiga ega. Intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Mehnat kodeksida intizomiy jazoni olib tashlash mutloq ish beruvchining huquqi hisoblanadi.

Shu bilan birga ish beruvchi iltimosni rad qilishi ham mumkin. Shu moddaga e'tibor qaratsangiz bu yerda ish beruvchi intizomiy jazoni bekor qilishga haqli deyilmoqda, majbur emas.

## JARIMADAN QARZINGIZ BO'LSA...

**Yo'l-patrul xizmati xodimi jarimadan qarzingiz bo'lsa, avtomobilingizni jarima maydoniga olib kirib qo'yishga haqlimi?**

**R. Tog'ayev.**



Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 291-moddasiga asosan, yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarima solish haqidagi qaror chiqarilgan kundan e'tiboran 60 kun ichida jarima to'lanmagan taqdirda, transport vositasi jarima solish to'g'risida qaror chiqargan vakolatli organ rahbarining yozma ko'rsatmasiga binoan jarima solish to'g'risidagi qarorning ijrosi yuzasidan ish yuritish tugaguniga qadar ushlab turiladi.

Ya'ni, sizning avtomobilingizni jarima maydoniga olib kirish uchun 2 ta asos bo'lishi kerak:

Birinchidan jarima solish haqida qaror chiqarilgan kundan e'tiboran 60 kun ichida jarima to'lanmagan bo'lishi kerak.

Ikkinchidan transport vositasiga jarima solish to'g'risida qaror chiqargan vakolatli organ rahbarining yozma ko'rsatmasi bo'lishi kerak.

Ya'ni, YPX xodimi og'zaki gap bilan sizni qarzingiz bor ekan avtomobilingizni jarima maydonchasiga olib kiramiz deya olmaydi. Qachonki qo'lida vakolatli organ rahbarining yozma ko'rsatmasi bo'lsagina avtomobilingizni jarima maydoniga olib kirish mumkin.

## TANISHIMNING QARZINI MEN TO'LASHGA MAJBURMANMI?

**Kredit olgan tanishimga kafil bo'lgan edim. Bu tanishim qamalib qoldi. Kreditorlar qarzlarni menga to'latishmoqchi. Ular qonunda shunday belgilangan deyishmoqda. Nahotki ular haq bo'lsa?**

**S. Karimov.**

Qonunchilikka ko'ra, kafillik shartnoma bo'yicha boshqa shaxsning majburiyatini to'layoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga olish hisoblanadi. Shuningdek, kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kafil kreditor oldida qarzdor bilan baravar hajmda javob beradi,



shu jumladan foizlar to'laydi, qarzni undirib olish bo'yicha sud chiqimlarini va qarzdor majburiyatini bajarmaganligi tufayli kreditor ko'pgan boshqa zararlarni to'laydi.

Kafillik shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Yozma shaklda tuzilmagan kafillik shartnomasi haqiqiy hisoblanmaydi.

Sizning savolingizga kelsak qarz oluvchining ozodlikdan mahrum etilganligi kafil uchun fors-major holat emas. Ya'ni siz kafil sifatida zimmangizga olgan majburiyatlarni bajarishga majbursiz.

Shunday ekan har qanday holatda ham kafil bo'lishdan avval yaxshilab o'ylab ko'ring!

**Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.**



# JAZIRAMA ISSIQDAN SAQLANING!

Issiqlik hammaga ta'sir qiladi, ammo ba'zi zaif guruhlar, masalan, keksa odamlar va chaqaloqlar jiddiy zarar ko'radi. Ya'ni haddan tashqari issiqlik ta'sirida tana qizib ketganda qon tomirlari kengayadi. Bu qon bosimining pasayishiga olib keladi va qonni tanaga surish uchun yurak qattiqroq ishlashga majbur. Mazkur holat – issiqlik toshmasi toshishi yoki oyoqlarning shishi kabi yengil alomatlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, terlash suyuqlik va tuzning yo'qolishiga sabab bo'ladi va eng yomoni, tanada ular orasidagi muvozanat o'zgaradi.

Alomatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:



bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, hushdan ketish, bosh og'rig'i, kuchli terlash, charchoq, sovuq, rangpar va xiralashgan teri. Agar qon bosimi juda pasayib ketsa, yurak xuruji xavfi ortadi.

Mutaxassislar 41 darajadan yuqori bo'lgan haroratni inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli baland deb ta'kidlaydilar. Bunda nafaqat bemorlar, balki sog'lom insonlar ham o'zini lohas sezishi va qator noxush kasalliklar yuzaga kelishi mumkin.

Inson organizmining 70 foizdan ko'prog'i suyuqlikdan tashkil topgan bo'lib, bu qon-tomir tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Qon-tomir tizimi faoliyati 36,6 haroratda o'z hujayralarini oziqlantirish, kislorod bilan ta'minlash funksiyalarini me'yorida bajara oladi. Ammo tana harorati balandlab ketganda, organizmda salbiy o'zgarishlar ro'y beradi.



## XAVFSIZLIK CHORALARI

Ko'proq suyuqlik iching. Quyosh ostida o'tuvchi har bir soat uchun 2-4 piyola ichimlik (suv, meva yoki sabzavot sharbati) eng to'g'ri me'yori hisoblanadi, ayniqsa jaziramada jismoniy faoliyat bilan mashg'ul bo'lsangiz. Terlash davomida tanangizdagi namlik kamayib borishiga yo'l qo'ymang.

Kunning eng issiq vaqtlarida salqin joyda bo'lishga harakat qiling. Yoz kunlarida kunduzgi 11:00dan 5:00gacha vaqt oralig'i eng xavfli hisoblanadi. Aynan shu davrda quyosh nurlarining to'g'ridan-to'g'ri tushishidan ehtiyot bo'ling.

Yorqin rangdagi yengil kiyim tanlang. Kiyimingiz iloji boricha keng va havo o'tkazuvchan bo'lishi kerak.

Iloji boricha konditsionerdan foydalaning.

Bosh kiyimni unutmang. Shlyapa yoki panamalar o'tob urishini qaytarishga qodir. Kepkalar issiq kunda maqbul tanlov emas, bosh kiyim yupqa va kattaroq bo'lgani ma'qul.

Tez-tez sovuq suvli dush yoki vanna qabul qiling. Bu tana haroratini tushiradi.

Tarkibida alkohol yoki kofein bo'lgan ichimliklar ichmang. Ular suvsizlik darajasini yanada oshiradi va qon tomirlarini taranglashtiradi. Buning natijasida tana kam terlaydi, sovishi qiyinlashadi.

## OVQATDAN ZAHARLANISHDAN EHTIYOT BO'LING!

Yoz – dam olish uchun ajoyib payt. U hovuzlarda cho'milib, quyosh, toza havo va turli xil mevalardan bahramand bo'lishimiz mumkin bo'lgan, uzoq kutilgan mavsum. Afsuski, aynan yoz faslida ovqatdan zaharlanish holatlari sezilarli darajada oshadi va bu bizning to'laqonli dam olishimizga imkon bermaydi.

Dala hovli, oromgohlar, tog' yonbag'irlarida hordiq chiqarayotganimizda va hattoki uy sharoitida ham biz ovqatdan zaharlanish holatiga duch kelishimiz mumkin. Bunda qorindagi og'riq, ich ketishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish kabi belgilarni his qilamiz. Ko'pincha bu holat tana haroratining ko'tarilishi va umumiy holsizlik bilan birga kechishi kuzatiladi.

Yaxshi yuvilmagan meva yoki sabzavotlarni iste'mol qilish, go'sht, baliq, tuxum mahsulotlariga yaxshi termik ishlov bermaslik – zaharlanishning asosiy sabablaridan hisoblanadi. Bundan tashqari, ko'p mahsulotlar issiqda tez ayniydi, buni payqashning esa har doim ham iloji bo'lavermaydi.

Afsuski, ovqatdan zaharlanishlarda hosil bo'lgan toksinlar nafaqat ichaklarga, balki jigar, buyrak va asab tizimiga ham ta'sir qilib, ularni zararlaysin. Zaharlanishning eng xavfli asoratlari dan biri – bu tananing suvsizlanishi hisoblanadi. Qayt qilish va ich ketishi oqibatida tana ko'p miqdorda suv yo'qotadi. Suv bilan birgalikda tanamiz uchun muhim bo'lgan tuz va mikroelementlar ham chiqib ketadi. Suvsizlanish, ayniqsa, bolalar hayoti uchun xavfli, chunki ularning tanasi suyuqlikni tezroq yo'qotadi. Tanadan atigi 12 foiz suvning yo'qotilishi esa o'limga olib keladi.



### BELGILARI VA CHORALARI

Oziq-ovqatdan zaharlanishining dastlabki belgilarini imkon qadar erta aniqlash va zudlik bilan choralar ko'rish muhimdir.

Qorin bo'shlig'ida kuchli burishish, ko'ngil aynishi va qayt qilish, haroratning ko'tarilishi (ba'zan 39 darajagacha), umumiy zaiflik kabilar ovqatdan zaharlanishning alomatlari hisoblanadi.

Zaharlanishning birinchi belgisida darhol shifokorni chaqiring. Ammo buning iloji bo'lmasa

yoki biror sababga ko'ra yaqin vaqtda yordam kela olmasa, quyidagi choralarni ko'rish kerak:

Bemorning oshqozonini yuving. Buning uchun toza suvdan (kamida bir litr) yoki kaliy permanganatning kuchsiz eritmasidan foydalanishingiz mumkin, so'ngra darhol qusishni qo'zg'atishingiz kerak. Bu toksinlarning qonga keyingi so'rilishining oldini oladi.

Agar bemorda diareya bo'lmasa, organizmning o'z-o'zini tozalashini tezlashtirish uchun unga ich keltiruvchi preparat berish lozim.

Oshqozonni yuvishdan keyin bemor faollashtirilgan ko'mir ichishi kerak. Shuni ham yodda tutish kerakki, zaharlanishda organizm namlikni sezilarli darajada yo'qotadi, shuning uchun ko'proq gabsiz mineral suv ichish kerak.

Bemorga yotoqda dam olishni ta'minlang: zaharlanish organizmga og'ir yuk bo'lib, unga tiklanish imkoniyatini berish zarur.

### TAVSIYALARGA QAT'IY RIOYA QILISH ZARUR

- mahsulotlarni, ayniqsa, tayyor yoki yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash muddatiga ahamiyat qaratish;
- go'sht, baliq, yarim tayyor mahsulotlar, salatlarini muzlatkichda saqlash;
- xom va pishgan go'sht, baliqlarni qayta ishlashda alohida kesish taxtalaridan foydalanish;
- xom mahsulotlarni to'g'rab bo'lgach pichoqlarni yaxshilab yuvish;
- tuxumni pishirishdan oldin bir oz vaqt sodali suvda ivitib, so'ng xlorli eritmada 15 daqiqa ushlab turish, keyin yaxshilab yuvish;
- sabzavot, meva va rezavorlarni yaxshilab oqar suvda yuvish va qaynoq suvda chayish;
- oshxona va shaxsiy gigiena qoidalariga qat'iy rioya qilish kerak.





An'anaga muvofiq, "Metallurg" futbol klubi qoshidagi "El Golazo Academy Powered by Real Madrid Foundation" bolalar va o'smirlar futbol akademiyasining eng katta va eng kichik yosh toifasi tarbiyalanuvchilari bu yil ham "Real" (Madrid) futbol akademiyasi bilan tajriba almashish uchun Ispaniya safariga borib keldi.

## FUTBOL AKADEMIYASI TARBIYALANUVCHILARI ISPANIYADA

Futbol akademiyamiz rahbariyati va murabbiylari boshchiligidagi delegatsiya a'zolari safarining dastlabki kunlari "Real" (Madrid) futbol akademiyasi bilan yaqindan tanishishdi. Akademiya tarbiyalanuvchilariga yaratib berilgan shart sharoitlarni ko'zdan kechirishdi.

Bu yil har ikkala yosh toifasidagi jamoalarimiz dunyoning 34 mamlakatidan 200 dan ortiq jamoa qatnashayotgan "MadCup" xalqaro turnirida ishtirok etdilar.

21-iyunda turnirning birinchi kuni har ikkala yosh toifasidagi jamoalarimiz g'alaba bilan bizni xursand etishdi. Kichik yosh toifasidagi yigitlarimiz mahalliy "Eurosoccer Academy" jamoasini 5:3 hisobida dog'da qoldirdilar.

U19 yoshli yigitlarimiz esa "Inspire S" jamoasiga qarshi murosasiz bahs olib borishdi va yakunda 2:1 hisobida g'alaba qozonishdi.

"Metallurg U12" jamoamiz ikkinchi kungi bahslarda "Alkobendas" darvozasiga javobsiz

oltita to'p yo'lladi. Kunning ikkinchi yarmida esa "Sokker Sharks"ga qarshi o'yinda 1:2 hisobida imkoniyat boy berildi.

"Metallurg U19" yoshlari esa kolumbiyalik tengqurlari - "Atletiko Nasonal"ga qarshi o'yinda 0:2 hisobida yutqazib qo'yishdi.



Turnirning navbatdagi o'yinlarida 19 yoshli o'smirlarimiz Germaniyaning "Veen Visbaden" jamoasiga qarshi o'yinda imkoniyatni boy berishdi - 3:2.

"Metallurg U12" jamoamiz mezbonlarning "Tres Cantos" jamoasini 4:3 hisobida mag'lub etishdi. Ushbu g'alaba "Metallurg" o'smirlarini keyingi bosqich - pley offga olib chiqdi.

Guruh bahslarida 9 ochko jamg'arib, ikkinchi o'rin bilan hal qiluvchi bosqichga yo'llanma olgan "Metallurg U12" jamoasi pley-off bosqichida Ispaniyaning "Las Rosas" jamoasi ustidan 3:2 hisobida zafar quchishdi.

12 yoshli o'smirlarimiz 1/16 final bahsini Kataloniyaning "Atletic Segre" jamoasiga qarshi o'tkazib, imkoniyatni boy berib qo'ydi. Katta tashabbus bilan o'ynagan kataloniyaliklar javobsiz to'rtta to'p kiritishdi. Shu tariqa "Metallurg U12" kurashni 1/16 bosqichda to'xtatdi va 120 jamoa orasida 16-o'rinni egalladi.

FUTBOL: SUPERLIGA\* FUTBOL: SUPERLIGA\* FUTBOL: SUPERLIGA\* FUTBOL: SUPERLIGA\* FUTBOL: SUPERLIGA\* FUTBOL: SUPERLIGA\*

### PESHQADAM BILAN DURANG

Mamlakat milliy chempionati birinchi davrasining oxirgi - 13-turidan o'rin olgan bahsda "Metallurg" chempionlikka asosiy da'vogarlardan biri Qarshining "Nasaf" jamoasi bilan durang o'ynadi - 0:0.

Musobaqa jadvalining so'nggi pog'onasida borayotgan "Metallurg" uchun har bitta o'yin hayot mamot masalasiga aylangan. Bekobodliklar karvonboshilardan biriga qarshi juda jiddiy qarshilik ko'rsatishdi.

Maydonda mezbon bo'lsakda ikkinchi raqam ostida harakat qilib, tezkor qarshi hujumlar bilan raqibni shoshirib qo'ydik. Gollik vaziyatlarni yaratish borasida ham "Nasaf"dan qolishmadik. Hatto

raqib darvozasini ishg'ol etishga ham muvaffaq bo'ldik. Afsuski, o'yin yakunida Daler Sharipovning kiritgan goli ofsayd deb baholandi va inobatga olinmadi.



### NAVBATDAGI MAG'LUBIYAT

Mamlakat milliy chempionatining 5-turidan kechiktirilgan o'yinda O'zbekiston olimpiya terma jamoasi asosini tashkil etuvchi "Olimpik" jamoasini qabul qilgan Bekobodning "Metallurg" jamoasi imkoniyatni boy berdi.

Uchrashuv olimpiyachilarning tez- kor hujumlari bilan boshlandi. "Metallurg" raqibning o'yin uslubiga moslashib ulgurmasidan ikkita gol o'tkazib yubordi. Markaziy himoyachilarimizning xatolaridan sobiq metallurgchi Ibrohim Ibragimov hamda Otabek Jo'raqo'ziyevlar unumli foydalanishdi. "Metallurg"dan 19-daqiqada Marko Milichkovichning zarbasi aniq bo'ldi - 1:2.

Ammo bekobodliklarning xursandchiligi uzoqqa cho'zilmadi. 33-daqiqada Ibrohim Ibragimov ofsayd chegarasida to'pni qabul

qilib oldi va darvozabonni osongina dog'da qoldirdi.

Ikkinchi taymda "Metallurg" mag'lubiyatdan qutilish uchun oldinga tashlandi. "Olimpik" esa himoya chizig'idagi muammolarimizdan unumli foydalanib gol urib ketdi. 57-daqiqada Ibrohim Ibragimov uchrashuvdagi uchinchi golini kiritdi - 1:4.

Bu hisob esa o'yin oxirigacha o'zgarmay qoldi.



### Birinchi davradan so'ng musobaqa jadvali

Nº	Jamoalar	O'	Yu	D	M	T-N	O
1	"Nasaf"	13	7	5	1	18-9	26
2	OKMK	13	7	2	4	22-15	23
3	"So'g'diyona"	13	7	2	4	23-17	23
4	"Paxtakor"	13	6	4	3	21-17	22
5	"Andijon"	13	4	7	2	22-16	19
6	"Navbahor"	13	4	7	2	18-14	19
7	"Olimpik"	13	5	4	4	16-12	19
8	"Neftchi"	13	5	4	4	13-11	19
9	"Surxon"	13	4	4	5	15-18	16
10	"Qizilqum"	13	3	6	4	14-16	15
11	"Dinamo"	13	3	5	5	14-17	14
12	"Lokomotiv"	13	2	4	7	12-22	10
13	"Bunyodkor"	13	1	5	7	8-24	8
14	"Metallurg"	13	0	7	6	10-18	7

### BOSH MURABBIY TAYINLANDI

"Metallurg" PFK futbol murabbiyi Grigoriy Kolosovskiy bilan rasman shartnoma imzoladi.

Mamlakatimizning yetakchi futbol klublari - "Paxtakor", "Lokomotiv", "Navbahor" hamda O'zbekiston terma jamoalaridagi faoliyati orqali muxlislarimizga yaxshi tanish bo'lgan mutaxassis endi "Metallurg"ni mavsumning ikkinchi davrasiga tayyorlaydi.

Grigoriy Anatolevich 1971-yilning 28-iyunida Toshkent shahrida tug'ilgan. Futbolchilik faoliyati-

ni Toshkent viloyatining "Chirchiq", "Sverdlovchi" jamoalarida boshlagan. Keyinchalik "Yangier", "Traktor" futbol klublarida o'ynagan.

2012-yildan buyon murabbiylik sohasida faoliyat yuritib kelayapti. G. Kolosovskiy har doim taniqli murabbiy Samvel Babayanning murabbiylar shtabida ishlab kelgan.

O'zbekistondan tashqari Latviya, Xitoy Xalq Respublikasi jamoalarida ishlagan va aynan shu mamlakatlar milliy chempionatlarining sovrindori bo'lgan.

### IKKINCHI DAVRA BOSHLANMQDA

Superliganing 2-davra o'yinlari avgust oyidan boshlanadi. "Metallurg" jamoasi bu oyda to'rtta uchrashuvda maydonga chiqadi. Ulardan bittasi safar uchrashuvi, uchtasi esa uy uchrashuvidir.

14-tur, 4 avgust: "Metallurg" - "Lokomotiv"

15-tur, 11 avgust: "So'g'diyona" - "Metallurg"

16-tur, 15 avgust: "Metallurg" - "Neftchi"

17-tur, 23 avgust: "Metallurg" - "Dinamo"

**Komiljon JUMAYEV**  
tayyorladi.



## IBRATLI HIKOYALAR

## XULOSA QILISHGA SHOSHMANGI!

Bir odamning to'rtta o'g'li bor edi. Shoshilib qaror chiqarmaslik, fikrlar yuzaki bo'lib qolmaslik borasida hayotiy dars o'rgatish uchun ota ularni uzoq vodiya joylashgan katta daraxtni ko'rib kelishga yubordi.

To'ng'ich o'g'il qish faslida, ikkinchisi bahorda, uchinchi o'g'il yozda, kenja esa kuzda bordi.

Barchalari daraxtni ko'rib kelishgach, otalari ularidan: "Qani, har biringiz ko'rgan daraxtingizni birma-bir sharhlab beringchi", dedi.

To'ng'ich o'g'il "Daraxt juda hunuk va qurigan ekan", dedi.

Keyingisi "Daraxt yam-yashil bargli ekan" dedi.

Uchinchisi "Daraxt xushbo'y gullar bilan qoplangan

ekan" dedi.

Kenja o'g'il esa "Daraxtning mevalari ko'p ekan" dedi.

Bularni eshitgan ota "Har biringiz to'g'ri gapirdingiz. Chunki sizlar turli fasllarda bordingiz. Ammo shuni bilinglarki, bitta daraxtga bir faslning o'zi bilan hukm chiqarmaslik kerak. Agar qishdagi ko'rinishiga ishonib, "Daraxt quruq" desangiz, uning bahordagi yashilligini, yozdagi go'zalligini, kuzdagi shirin mevalarini inkor qilgan bo'lib qolasiz. Xuddi shuningdek, bir odam haqida ham bitta vaziyatdan, bitta burchakdan turib, birgina odamning gapi bilan hukm chiqarmanglar. Uning hamma tomonini o'rganib chiqib, keyin xulosa chiqaringlar", dedi.



## UZUM

To'rt millatdan to'rt kishi – turk, fors, arab va yunonlik yo'lda birga ketayotganlarida ularga birov bir dirham pul beradi. To'rtovlon bir-birining tilini tushunmagani sababli pulga nima sotib olish kerakligi ustida janjallashib qoladilar: fors "angur" (uzum) olamiz desa, arab "man angur yemayman, inab (uzum) istayman" deydi. Turk "uzum" olamiz deb turib olsa, yunonlik "yo'q, istofil (uzum) yemoqchiman" deb musht o'qtaladi. Natijada ular bir-birini tushunmay, yoqalashib ketadilar.

Shu payt ko'p tilni biladigan bir odam yo'liqib, ularning nizosiga quloq solib, pulni qo'llaridan olib, bozordan uzum sotib olib berganida, to'rtalasi ham bir narsani xohlaganini ko'rib hayron qolishadi, istaklari amalga oshib, yarashib ketadilar.

Jaloliddin Rumiy ushbu rivoyat bilan nafaqat



nomlar, ifodalarning xilma xilligi ma'no-mohiyatini yashirib, odamlarni adashtirishini anglatish barobaridan muhim bir g'oya – Xudoning mohiyatini anglashda insonning hushyorligi, aqliy va ma'rifiy kamolotiga asosiy e'tiborni qaratadi. Odam qanchalik nodon bo'lsa, u shuncha xurofotga, so'zlar sehriga, shakllarga mahliyo bo'ladi, rasm-rusumga, aqidalarga beriluvchan bo'ladi.

"Ma'naviy masnaviy" asaridan.

## DONOLAR DEYDIKI...

Faqatgina go'zal, yaxshi niyat qiling va yo'lingizda davom eting. Qazoi-qadar, niyatga oshiqdir. Chekkan zahmatingiz, kun kelib rahmat bo'ladi.

Shams Tabriziy.

\*\*\*

Bilim-barcha kuchlarga qalqon.

Rudakiy.

\*\*\*

Yo asling kabi ko'rin, yo ko'ringaning kabi bo'l.

Jaloliddin Rumiy.

\*\*\*

Bilmaydiganlar jim tursa, odamlar orasida kelishmovchiliklar bo'lmas edi.

Muhammad G'azzoliy.

\*\*\*

Agar maqsading bo'lmasa buyuk bo'la olmaysan, agar maqsading buyuk bo'lmasa, buyuk ish qila olmaysan.

D. Didro.

FOYDALI  
MASLAHATLAR

\* Ko'k choy buyrakni yuvadi, undagi yallig'lanishni davolaydi.

\* Yotishdan oldin yengil badantarbiya qiling.

\* Uyqudan oldin quyidagilarni iste'mol qilish mumkin: olma, bir qoshiq asal, bir stakan kefir yoki asal qo'shilgan bir stakan iliqroq sut.

\* Uyqusi qochgan odam asal yalasin.

\* Tez-tez qatq zar-dobini ichib turish qonning ifloslanishi (uremiya) kasalligidan asraydi.

\* Chumchuq va bedana sho'rva odamni har taraflama ba-quvvat qiladi.

\* 10-30 daqiqa piyoda yuring. Yurganda tabassum qiling.



## XANDALAR

Quyuq tuman. Bir ayol mashinasini oldinda ketayotgan avtomobilning chiroqlariga qaragan holda ehtiyotlik bilan boshqarib bormoqda. Kutilmaganda oldidagi mashina birdan tormoz beribdi. Ayol ham vaqtida tormozni bosishga ulguribdi va tusha solib baqira ketibdi:

– Hoy nega to'satdan tormoz bosasan? Urib olishimga sal qoldi-ku!

– Men shunchaki, garajimga kirdim, xolos.

\*\*\*

Tug'ilgan kuningga nima sovga qilishdi?

– Darvozamiz oldida turgan oppoq "lasetti"ni ko'rdingmi?

– Ha.

– Xuddi shunaqa rang futbolka.

\*\*\*

– Qo'shniyon, erimdan xavotirdaman. Mushuk kosadagi qaymoqni yeb qo'ygan ekan, daryoning eng chuqur joyiga cho'ktirish uchun olib ketgandi. Haliyam qaytmadi.

– Nega xavotir olasiz? Qaytadi.

– Voy, nega xavotir olmay? Mushukning qaytgani-ga bir soatdan oshdi axir!



## BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!



O'zbekistonda mahalliy xalq vakillarini metallurgiya sohasiga o'qitish uchun huku-matning maxsus qarorini chiqarish tashabbuskori kim bo'lgan va nechi kishi Ros-siyaga o'qishga jo'natilgan?

\*\*\*

Insonda ikki narsa bar-davom bo'lmaydi. Ular nima ekanligini bilasizmi?

\*\*\*

Dunyodagi kislorodning 25 foizi qaysi hududda hosil bo'ladi?

\*\*\*

Olimlar inson vafot etishi oldidan tiliga qanday so'z va gaplar kelishini aniqladilar. Bu qanday gap, so'zlar?

Insondagi qattiq char-choq, mudroq va ko'p esnash nimadan dalolat beradi.

\*\*\*

Ba'zi jonivorlar hatto daryo va ko'llar yuzasidan suvga g'arq bo'lmay yugurib o'tishi mumkin. Ular qanday jonivor va nimaning evaziga suvga g'arq bo'lmaydi?

\*\*\*

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

\* Taloq

\* Niderlandiya. "Joy bermayman" degan shior dengizga nisbatan ishlatilgan.

\* Yantoq namni yerdan, kaktus havodan oladi.

\* O'quvchining darsda ishtirok etishining o'zi unga bir baho beradi.

\* Tramvay.

\* Kalamush.

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg  
Minbari

MUASSIS:  
O'zbekiston metallurgiya  
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

WWW.uzbeksteel.uz

Muharrir:  
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar  
"O' zmetkombinat"  
aksiyadorlik jamiyatining  
Metallurglar madaniyat saroyida  
joylashgan.

Tel: 10-17, 70-214-19-24

Gazeta oyda bir marta  
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida  
terilib, sahifalandi va "Niso  
nashriyot va matbaa uyi" MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili:  
O'rta Chirchiq tumani "Mash'al"  
mahallasi, "Markaziy" ko'cha, 1-uy.

Sahifalovchi:  
Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqti 17.00  
Bosishga topshirildi-14.20  
Adadi 600. Bichimi A-3.  
ISSN 2181-645X  
Gazeta "O' zmetkombinat"  
Ajda bepul tarqatiladi.

Buyurtma №